

## HOMILADORLAR SURUNKALI ARTERIAL GIPERTENZIYASIDA XAVF OMILLARINING ROLI

*Sidixodjaeva M.A. Ergashova M.E.*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Dolzarliligi: Surunkali arterial gipertenziya (SAG) homilador ayollarda patologiyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biriga aylanib bormoqda. Homiladorlik davridagi gipertenziv kasalliklar 20-39 haftalik davrdagi homilador ayollarning 13,8 foizida kuzatilgan, ular orasida SAG holatlari 3,6 foizini tashkil qiladi. Homiladorlik davrida arterial gipertenziya homiladorlikning kechishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va perinatal yo'qotishlar, onalar o'limining asosiy sababi hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi: homilador ayollarda surunkali arterial gipertenziya xavf omillarining ahamiyatini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotimiz Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasining birlamchi bo'limiga yotqizilgan 17 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan, o'rtacha yoshi  $30,65 \pm 0,4$  yoshda bo'lgan 40 nafar homilador ayolni qamrab oldi.

Natijalar va muhokama: Tadqiqotga 4 haftadan 28 haftagacha bo'lgan davrdagi homilador ayollar qamrab olindi. Ayollarning aksariyati (79,4%) homiladorlik bilan bog'liq gipertenziyani istisno qilish uchun homiladorlikning 20 xaftasidan oldin tadqiqotga kiritilgan. Tadqiqotda homiladorlik gipertenziyasi va qandli diabet bilan kasallangan ayollar ishtirok etmadi. Nazorat sifatida 18-28 xaftada qon bosimi ko'tarilmagan 20 nafar homilador ayollar guruhi jalb qilindi. Nazorat guruhidagi ayollarning o'rtacha yoshi  $28,4 \pm 0,4$  yoshni tashkil etdi. Ayollarning to'liq klinik tekshiruvini, shu jumladan umumiy qon va siydik tahlili, kunlik proteinuriya, endogen kreatinin asosida glomerulyar filtratsiya tezligini o'rganish, siydik kislotasini aniqlash bilan biokimyoviy qon tahlili, oftalmoskopiya, EKG, buyraklar va yurak UTT si, sutkalik qon bosimi monitoringi, antropometrik ma'lumotlar (bo'y, vazn, tana massasi indeksi  $\text{kg} / \text{m}^2$ ). Homiladorlik davrida tana massasining ortishi darajasi ham hisobga olingan.

Quyidagi xavf omillari (XF) baholandi: yosh, irsiy omil, ortiqcha tana vazni, osh tuzini suiste'mol qilish va ularning kombinatsiyasi. Ayollarni kasalxonaga yotqizish sababi qon bosimining 140/90 dan 150/100 mm Hg gacha ko'tarilishi edi. Tadqiqotlar natijasida 33 yosh va undan katta ayollarda 80% ehtimollik bilan SAG rivojlanish xavfi 32 yoshgacha bo'lgan ayollarga qaraganda 1,33 baravar yuqori ekanligi aniqlandi. Bir ota-onada irsiy yuk bilan kasallikning rivojlanishi 1,67, ikkala ota-onada esa 1,8 ni tashkil etdi. Asosiy guruhdagi ortiqcha vazn homilador ayollarning 73,6 foizini tashkil etdi, ularning 52,3 foizi turli darajadagi semirishdan aziyat chekdi. Nazorat guruhida tana vaznining ortishi kuzatildi: 21,4% ortiqcha vaznga ega, 9,4% I va III darajali semirish. Xavf omillarining kombinatsiyasi SAG rivojlanish ehtimolini oshirdi. 32 yoshdan oshgan va semirish bilan birgalikdagi homilador ayollar sog'lom homilador ayollarga qaraganda 2,46 baravar, irsiy yuk bilan - 2,18 baravar yuqori. Ortiqcha tana vazni bilan irsiy yukning kombinatsiyasi ham nazorat guruhiga nisbatan gipertoniya mavjudligini 2,9 baravargacha oshiradi va semirish bilan birgalikda - 3,0 baravargacha. Bizning tadqiqotimiz guruhlar o'rtasida tuz iste'molida sezilarli farqni aniqlamadi (1,1 marta).

Xulosa: Shunday qilib, SAG uchun xavf omillari yaxshi ma'lum. Bizning tadqiqotimiz homilador ayollarda SAG mavjudligiga xavf omillarining ta'sirini qayta tushunishga harakat qildi. Bizning tadqiqotimiz natijalari xavf omillarini o'z vaqtida aniqlash va SAG ning yetarli darajada oldini olish va davolash ona va homila asoratlarini kamaytirishga olib kelishining yana bir isbotidir.